

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.Abdullayeva</b>	
XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi .....	324
<b>F.Temirov</b>	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
<b>I.Naimov</b>	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
<b>R.Rahimov</b>	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar .....	337
<b>D.A.Choriyeva</b>	
Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
<b>O.V.Mahmudov</b>	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya .....	353
<b>A.A.Hakimov, B.A.Usmanov</b>	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi .....	360
<b>N.X.Choriev</b>	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi .....	365

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>I.Yakubov</b>	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda .....	368
<b>P.Bakirov</b>	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani .....	373
<b>I.Mannopov</b>	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi .....	379
<b>Q.Yo'lchiyev</b>	
Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar .....	383
<b>J.Eshonqulov</b>	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati .....	388
<b>T.Matyobova</b>	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
<b>M.Qurbonaliyeva</b>	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili .....	399
<b>I.Eshonqulov</b>	
Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash .....	405
<b>H.Ne'matova</b>	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi .....	413
<b>X.A.Xaitov</b>	
O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi .....	417
<b>Samadi Nooria</b>	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari .....	421
<b>A.G.Sabirdinov</b>	
Shuhrat she'rlariga bir nazar .....	427
<b>S.Muminov, Z.Kamoliddinova</b>	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

#### TILSHUNOSLIK

<b>Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva</b>	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi .....	439
<b>Sh.A.Ganiyeva</b>	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari .....	443
<b>D.Yuldasheva, S.Nishonova</b>	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....	447
<b>M.Saminjonov</b>	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
<b>O.Latipov</b>	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini .....	454

**YEVROPA NOSHIRLIK UYLARI VUJUDGA KELISH TARIXIGA NAZAR  
(JUNTI NOSHIRLIK UYI MISOLIDA)****ОБЗОР СОЗДАНИЯ ЕВРОПЕЙСКИХ ИЗДАТЕЛЬСКИХ ДОМОВ  
(НА ПРИМЕРЕ ИЗДАТЕЛЬСТВА ДЖУНТИ)****A REVIEW OF THE ESTABLISHMENT OF EUROPEAN PUBLISHING HOUSES  
(ON THE EXAMPLE OF THE JUNTI PUBLISHING HOUSE)****Rahimov Rasulbek Ravshan o'g'li<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Rahimov Rasulbek Ravshan o'g'li**

– Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Yevropa qit'asida noshirlik uylarining vujudga kelishi tarixi va ularning faoliyati Italiyada joylashgan Junti noshirlik uyi misolida yoritib berilgan. Noshirlik uyining qay tariqa qit'ada yetakchilardan biriga aylangani, Junti oilasi tarixi, shuningdek, unda chop etilgan o'rta asr Sharq olimlarining ba'zi asarlari tahlil qilingan. Ba'zi bir adabiyotlardagi yanglish ma'lumotlarga tuzatishlar kiritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье история возникновения издательства на европейском континенте и их деятельность освещены на примере издательства Джунти, расположенного в Италии. Анализируются как издательство стало одним из лидеров на континенте, история семьи Жунти, а также опубликованные в нем работы некоторых средневековых ученых-востоковедов. Внесены исправления в ошибочную информацию ювнекоторой литературе.*

**Abstract**

*In this article, the history of the emergence of publishing houses on the European continent and their activities are covered by the example of the Giunti publishing house located in Italy. How the publishing house became one of the leaders on the continent, the history of the Junti family, as well as some works of medieval Eastern scholars published in it are analyzed. Corrections have been made to the erroneous information in some literature.*

**Kalit so'zlar:** noshirlik uyi, kitob bosish, Junti, Venetsiya, Renessans, Lyuk Antonio, Liber Canononis, Alesandro va Felichi Paggi.

**Ключевые слова:** издательский дом, типография, Жунти, Венеция, Ренессанс, Люк Антонио, Liber Canononis, Алессандро и Феличи Паджу.

**Key words:** publishing house, printing, Junti, Venice, Renaissance, Luc Antonio, Liber Canononis, Alessandro and Felici Paggi.

**KIRISH**

XV–XVII asrlarda Yevropada ilm-fan va madaniyatning yuksalishi ko'p jihatdan IX–XII asrlarda bo'lib o'tgan Sharq Renessansi bilan chambarchas bog'liqdir. Yevropaliklarning o'rta asrlar Sharq olimlari ilmiy merosi bilan yaqindan tanishuvida 1445-yilda Germaniyaning Mayns shahrida Logann Guttenberg tomonidan kitob bosish dastgohi kashf etilganidan so'ng qit'a bo'ylab vujudga kelgan ko'plab noshirlik uylarining o'rni beqiyos bo'ldi. Jumladan, 1489-yilda Italiyaning Venetsiya shahrida tashkil topgan Junti noshirlik uyi ham bu jarayonda anchayin faollik ko'rsatdi. Quyida Junti noshirlik uyining vujudga kelish tarixi, Yevropadagi noshirlik ishlarida qanday qilib mustahkam o'ringa erishganligi tahlil qilinadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Yevropada noshirlik uylarining vujudga kelishi va taraqqiyoti to'g'risida juda ko'p ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularni birgina maqolada jamlab, tahlil qilish imkonsizdir. Lekin aynan Junti noshirlik uyi va unda chop etilgan kitoblar to'g'risida ilmiy izlanishlar olib brogan olimlar sanoqlidir. Ularning orasida AQSHlik olim Uilyam Pettasning alohida o'rni bor. Italiya, Fransiya va Ispaniyada noshirlik ishining ilk davrini chuqur tadqiq etgan Pettas Junti noshirlik uyi tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Xususan, "Renessans davri xalqaro noshirlik oilasi: Junti" [10], "XVI asr Ispaniya kitob bozori: Xuan de Junta tavsifi" [11] kabi ilmiy ishlarida bevosita Junta oilasi tarixini o'rgangan. Ayniqsa, keyingi o'rinda kelgan asarida Junta oilasining Ispaniyadagi kitob

savdosi va noshirlik ishlarida tutgan mavqeyi, noshirlar, kitoblar to'g'risida arxiv ma'lumotlariga tayanib qimmatli ma'lumotlar beradi.

Germaniyaning Vittenburg universiteti professori Dag Nikolaus Hasse o'zining "Yuksalish va qulash. Renessans davrida arab ilm-fani hamda falsafasi" [7] keng qamrovli asarida XVI–XVII asrlarda Yevropa noshirlik uylarida nashr etilgan musulmon olimlar asarlari haqida ma'lumotlar keltiradi. Garchi asarda asosiy obyekt noshirlik uylari faoliyati bo'lmasa-da, lekin Junti noshirlik uyida chop etilgan kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlar va tahlillar keltirilgan.

Shuningdek, maqolada Junti noshirlik uyida nashr etilgan Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarining bir qancha nusxalaridan foydalanilgan [2], [3], [4].

Junti Italiyaning Florensiya shahrida yashagan "Junti" (ing. "Giunti") oilasining nomi bo'lib, oila to'g'risidagi ilk ma'lumot 1427-yilga oid soliq qaydnomasida uchraydi. [6]. Ushbu hujjatdan bilish mumkinki, uch aka-uka Lapo, Junta va Yakopo onasi bilan birga shahar chetidagi Santa Lusiya de Ognisanti mahallasida yashashar, otalari bu paytda vafot etgan bo'lib, katta o'g'il farzand Lapo og'ir kasal edi. Oilaga tegishli mulk qiymati anchayin kamtarona bo'lib, u yillik 11 Florensiya florini miqdorida daromad keltiruvchi yer-mulkni o'z ichiga olardi. Shundan so'ng Lapo va Yakopo ismlari tarixiy manbalarda tilga olinmaydi. Faqat Junta va uning yetti o'g'li to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Asl kasbi to'quvchi bo'lgan Juntaning Filippo (1456–1517) va, ayniqsa, Lyuk Antonio (1457–1538) ismli o'g'illari keyinchalik butun G'arbiy Yevropa bo'ylab keng yoyilgan noshirlik faoliyati va kitob savdosi tarmog'iga asos soladilar.

1477-yilda Lyuk Antonio Florensiyani tark etib, Venetsiya tomon yo'l oladi. Bu davrda Venetsiyada kitob bosish va noshirlik faoliyati tez suratlarda taraqqiy etayotgandi. Venetsiyadagi Marsiana milliy kutubxonasi (Biblioteca Nazionale Marciana) xodimi Federika Benedetti tomonidan keltirilgan quyidagi raqamlar buning yorqin ifodasidir: "Aldo Manutsiya Venetsiyadagi noshirlik ishini yuqori darajada rivojlanishini ta'minlashda yagona figura emasdi. Bunda Venetsiyada faoliyat olib borgan Junti, Sesa, Skot va Jolito kabi boshqa nufuzli noshirlik uylarining ham o'rni beqiyos bo'lganligini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. XV–XVI asrlarda butun Italiyada nashr etilgan jami kitoblarning 48,6–54 foizi Venetsiya hissasiga to'g'ri kelgan. XVI asrda shaharda 250 ga yaqin katta va kichik noshirlik uylari ish olib borgan bo'lib, ular 25 mingdan nashrni amalga oshirganlar. Shu tariqa Venetsiya Yevropaning de fakto kitob nashr qilish markaziga aylangan" [7].

Venetsiyada o'n-yildan ortiq vaqt mobaynida kanselyariya ishlari bilan shug'ullangan Lyuk Antonio 1489-yilda oila nomi bilan atalgan Junti noshirlik uyiga asos soladi va dastlabki kitob nashr qiladi. Chop etilgan ilk kitoblar diniy mazmundagi kitoblar bo'lib, bu katta bozorning mavjudligi va diniy kitoblarga qiziqishning yuqori ekanligi bilan izohlanadi [11].

1491-yili Lyuk Antonio va ukasi Filippo o'rtasida shartnoma imzolani, asta-sekin oila o'z noshirlik tarmog'ini kengaya boshlaydi. 1497-yilda Filippo ham Florensiyada yangi noshirlik uyini tashkil qiladi. 1491 yilgi 4,500 florinlik ustav kapital 1499-yilga kelib 11,032 floriga yetdi. [11]. Tez orada Junti oilaviy noshirlik uyi ibodat ruhidagi kitoblar chop etishda Italiyada yetakchiga aylanib, XVI asr davomida bu maqomni hech kimga bermaydi [9].

Junti oilasining mavqeyi tez o'sib borgan holda Yevropaning boshqa shaharlarida ham noshirlik hamda savdo uylari tashkil qila boshladi. Bundan tashqari Junti noshirlik uyi qudratini unda ishlab chiqarilgan diniy mazmundagi ibodatga oid kitoblarni yetkazib berish geografiasining kattaligi orqali ham anglay qiyin emas. Zero, o'sha vaqtda noshirlik uyi katolik dunyosining Akvileya, Messina, Valombrosa, Valensiya, Augsburg, Vyurtsburg, Mayorka, Gran, Passau, Zaltsburg, Zagreb kabi ko'plab shaharlari uchun diniy mazmundagi ibodatga oid kitoblarni yetkazib berishni yo'lga qo'ygandi [9].

Italiyak noshir Skipio Karteromacho (1466–1515) tomonidan 1504-yil 11-dekabr sanasida Venetsiyadagi mashhur noshir Ald Manutsiyga yuborilgan xatda Rimda kitob savdosi bilan shug'ullanadigan Yakopo Junti ismi tilga olinadi. Bu Junti oilasining Rim shahri kitob bozoriga kirib borayotganligining dastlabki nishonasi edi. Yakopo Junti 1427-yilgi soliq qaydnomasida ismi keltirilgan Yakopo emas, balki Lyuk Antonioning akasi Badjoning o'g'li edi. Albatta, diniy mazmundagi kitoblar ishlab chiqarishda yetakchilardan biri hisoblangan Junti noshirlik uyi uchun Rimda o'z faoliyatini yo'lga qo'yish muhim vazifa bo'lgan.

1528-yilda Yakopo vafot etganidan so'ng Junti oilasining Rimdagi ishlarini Lyuk Antonioning boshqa ukasi Francheskonging o'g'li Benedetto davom ettiradi. Uning vositachiligida 1536-yili Junti

## TARIX

noshirlik uyi hamda Vatikanning rasmiy noshiri Antonio Blado va Rimning yana bir yetakchi noshiri bo'lmish Antonio Salamanka o'rtasida shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra, diniy mazmundagi "Quifonez breviary" kitobini nashr qilish huquqi uchala noshirga taqdim etiladi. Buning evaziga Lyuk Antonio kitobni nashr qilish uchun ketadigan barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi va 2000 nusxada chop etilgan nashrning yarmi rimlik hamkorlarga beriladi. Lyuk Antonioning bunday harakat qilishidan maqsad Vatikan ta'sir doirasidagi hududlarda erkin savdo qilish hamda qaroqchilik holatlariga duch kelgan taqdirda sudda Vatikan himoyasi ostida bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritish edi. Lekin Junti oilasining Rimdagi noshirlik faoliyati unchalik muvaffaqiyatli chiqmadi. 1551-yildan keyin tarixiy manbalarda oilaning Rimdagi noshirlik uyi haqida ma'lumotlar uchramaydi.

Aksincha, Junti oilasining 1517-yilda Lyuk Antonio hamda akasi Badjoning o'g'li Juntino hamkorligida Frantsiyaning Lion shahrida ochilgan noshirlik uyi ko'proq muvaffaqiyatga erishdi. Ustav kapitali 32,153 Venetsiya dukatini tashkil etgan noshirlik uyi tez fursatlarda Lionda noshirlik ishi va kitob savdosida mustahkam o'rin egallaydi. 1521-yilda Juntino vafot etganidan so'ng Liondagi boshqaruvni Francheskning boshqa bir o'g'li Jakomo qo'lga o'tadi. Uning davrida Junti oilasining Liondagi ishlari ancha yurishadi. Lionda oila turli noshirlar bilan hamkorlikda huquqshunoslikka oid kitoblar nashr qilishda yetakchi bo'ldi. 1519–1542-yillarda 30 nomdagi 108 tomdan iborat nashrlarni amalga oshirdi. O'g'il farzandi bo'lmagan Jakomo 1547-yilda vafot etganidan so'ng uning qizi otasining ishini davom ettirish vazifasini asli florensiyalik bo'lgan Filippo Tingiga yuklaydi. Filippo bu vazifani 1572-yilga qadar bajaradi. Shundan so'ng Juntilarning Liondagi faoliyati to'g'risida ma'lumotlar uchramaydi.

Ispaniyada ham Junti oilasi kitob savdosi va noshirklik faoliyatini kengaytirishga bel bog'laydi. Lyuk Antonioning ukasi Filipponing o'g'li Jovanni (1494–1558) 1513-yilda oila manfaatlarini himoya etish va katta potentsialga ega bo'lgan ispan bozorini o'rganish uchun Ispaniyaga yetib boradi. Pireney yarim orolining shimoli va g'arbida joylashgan Burgos hamda Salamanka shaharlari Junti oilasi noshirlik va savdo faoliyati olib borgan asosiy ispan shaharlari hisoblanadi. 1525-yilga qadar Salamankada kitob savdosi bilan shug'ullangan Jovanni shu yilda Burgosga ko'chib boradi va u yerda 1517-yilda vafot etgan yirik noshir Fadrike de Basilning qizi Izabelga uylanadi. Bu nikoh unga Burgosda noshirlik faoliyatini yo'lga qo'yish imkonini berib, tez orada uning birinchi noshirlik ishi bo'lgan Garsiya Rodrigues de Montalivo (1450–1505) qalamiga mansub "Las Sergas de Esplandián" ("Esplandianning sarguzashtlari") nomli asari nashr qilinadi. Kitobda Jovanning ismi Xuan de Junta (Juan de Junta) shaklida kelgan bo'lib, shundan so'ng mana shu nom ostida noshirlik ishlarini davom ettiradi [11].

Venetsiya, Florensiya, Lionda nashr etilayotgan kitoblarni Ispaniyaga olib kelish va savdosi bilan shug'ullanish barobarida Jovanni (Xuan de Junta) bu yerdagi Junti noshirlik uyi faoliyatini ham boshqarib boradi. 1532-yilda Salamankada ham noshirlik uyi tashkil etiladi, uni Jovanni tomonidan tayinlangan noshir Alexandro de Kanova boshqarib boradi.

#### NATIJARLAR VA MUHOKAMA

1538-yilda Junti noshirlik uyining asoschisi, oilaning Yevropada yetakchi mavqega erishishida muhim o'rin tutgan Lyuk Antonioning vafot etishi Junti oilasining o'sib borayotgan qudratiga keskin zarba bo'ldi. Undan qolgan zalvorli merosni o'g'illari Tomazo va Jovanmariya Juntilar qabul qilib olishdi. Mana shunday og'ir damda yaqinlari bilan birga bo'lish maqsadida Jovanni Salamankadan Venetsiyaga yo'l oldi. Salamankada Alexandro de Kanova, Burgosda kuyovi Mattias Gast uning ishlarini davom ettirishadi.

1557-yil Burgosdagi noshirlik uyi omborida saqlanayotgan kitoblar ro'yxatidan ma'lum bo'lishicha, omborda 1579-nashrga oid 15837 dona kitob mavjud bo'lgan [9]. Ushbu raqamlar Junti oilasi Yevropada o'sha davr noshirlik ishi va kitob savdosida naqadar katta qudratga ega bo'lganligini ko'rsatib turibdi.

Lyuk Antonio vafotidan keyin ham uning o'g'illari noshirlik ishi va kitob savdosi tarmog'ini rivojlantira olishdi. Garchi bu davrda bir qator obyektiv va subyektiv omillar iqtisodiy inqirozni keltirib chiqargan bo'lsa ham. Jumladan, 1547–1552-yillarda butun Yevropani dahshatga solgan qora o'lat 30 milliondan ortiq odamning yostig'ini quritdi va bu kitob savdosiga katta zarba bo'ldi. Bundan tashqari 1553-yilda firma moliyaviy inqirozga uchraydi va 100 ming dukat miqdorida qarzdor bo'lib qoladi. 1557-yilda sodir bo'lgan yong'in noshirlik uyi binosi hamda omborga juda

katta zarar yetkazadi. Biroq Juntilar vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirishga muvaffaq bo'ladilar. Har holda 1564-yil 27-iyulda Tomazo Junti tomonidan bitilgan vasiyatnoma bizga shunday xulosaga kelishga imkon beradi. Garchi Junti oilasining umumiy mol-mulk miqdori ko'rsatilmagan ersa-da, unda Tomazo Junti firmaning 1553-yildagi moliyaviy inqiroz bilan bog'liq barcha qarzlari to'langanligi va u moliyaviy jihatdan yana avvalgidek barqaror holatda ekanligini bayon etgan edi. [5]. Bundan tashqari noqonuniy xotinidan tug'ilgan qizi Francheskinaga 4000 dukat miqdorida meros qoldirganligi ham eslab o'tiladi. [11].

1566-yilda Tomazo vafot etganidan so'ng oilaning yetakchilik roli Jovanmariyaning o'g'li Lyuk Antonio Kichikka o'tadi. Yaxshi boshqaruvchilik qobiliyatiga va yetuk bilimga ega bo'lganligiga qaramasdan Lyuk Antotnio Kichikni endi nafaqat italyan, balki tez o'sib borayotgan Frantsiya, Shveysariya va, ayniqsa, Niderlandiya noshirlik uylari bilan bilan raqobat olib borishga kabi jiddiy vazifa kutib turardi. Bu paytga kelib Florensiyani boshqaruvchi Medichi sulolasi bilan oradagi nizolar, sulolaning Juntilarga nisbatan bosimining ortib borishi natijasida Florensiyadagi noshirlik uyi chuqur inqiroz girdobida tushib qolgan bo'lib, XVI asr oxiriga kelib deyarli faoliyatini tugatadi. Rim shahri esa asr o'rtalaridayoq Juntilar uchun begonaga aylanganligi, Lionda ham bu paytga kelib ishlar chappasiga ketishni boshlaganini yuqorida ko'rib o'tdik.

Lyuk Antonio Kichik mavjud vaziyatni o'nglash maqsadida noshirlar va kitob savdosi vakillari ishtirokida "Societas Aquilae renovantis" nomi bilan aksiyadorlik jamiyatini tuzdi va eng katta aksiyalar ulushini o'zida saqlab qoldi. Shundan so'ng jamiyat Italiyada sohaning eng yirik vakillaridan biriga aylandi. Verona, Milan, Parma, Verchelli, Turin, Bolonya, Piza, Perudja, Rim, Neapol, Melfi, Bari, Messina, Palermo kabi Italiya shaharlarida savdo tarmog'i faol ishlab turdi.

Lekin 1602-yilda Lyuk Antonio Kichikning vafot etishi munosabati bilan Junti oilasining noshirlik va kitob savdosidagi faoliyatiga ramziy ma'noda nuqta qo'yildi. 1604-yilda uning o'g'illari Junti noshirlik uyi va kitob savdo do'konlarini katta savdogar Franchesko Manolessiga sotishadi. Lekin shuni e'tirof etish kerakki, 1604-yildan keyin ham Junti noshirlik uyi faoliyati to'xtab qolmagan va aynan Junti nomi bilan kitob nashr qilish davom etgan.

Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub "Al-qonun fit-tib" asarining "Liber Canononis" nomi bilan mashhur bo'lgan tarjimasini 1608-yilda chop etilgan nusxasi shunday xulosa chiqarishga sabab bo'ldi. Chunki kitob titul varog'ining quyi qismida lotin tilida noshirlik uyining nomi keltirilgan edi. Bizning fikri o'qimimizcha, Junti noshirlik uyini sotib olgan Franchesko Manolessi o'sha davr matbaachiligida juda katta mavqega ega bo'lgan Junti nomini o'zgartirmasdan faoliyat yuritishni afzal ko'rgan va bu nom orqali ko'proq daromadga ega bo'lishni maqsad qilgan bo'lsa ne ajab.

Junti noshirlik uyi 100 yildan oshiq davr mobaynida anchayin samarali faoliyat olib bordi. Shu bois ba'zi tarixchilar o'z asarlarida Juntini noshirlik uyi sifatida emas, balki shahar sifatida sanab o'tishadi. Masalan, Donald Kempel "Arab tibbiyoti va uning o'rta asrlarga ta'siri" ("Arabian Medicine and its Influence on the Middle Ages") asarida "Al-qonun fit-tib" asarining muhim nashrlari chop etilgan shaharlar sifatida Milan, Padua, Venetsiya va Juntini ko'rsatadi. [6]. Xuddi shu asarni o'rgangan va tarixchi Abdusodiq Irisov ham "Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi" asarida Juntini shahar sifatida tilga oladi [1]. Demak, ko'rinib turibdiki, Junti noshirlik uyi o'rta asrlarda Yevropa kitob sanoatida muhim o'ringa ega bo'lgan va ba'zi tadqiqotchilarni uni shahar deb o'ylashga majbur qilgan.

Tarixiy qadriyatlarga ega bo'lgan Junti noshirlik uyi 1841-yilda Alesandro va Felichi Paggi tomonidan qayta tiklanadi. Asosan, kichik yoshdagi bolalar uchun kitob bosib chiqarishga mo'ljallangan noshirlik uyida 1883-yilda mashhur "Pinokkioning sarguzashtlari" asari dunyo yuzini ko'radi. Bugungi kunda Junti nafaqat kitob nashr etishda, balki onlayn kitob bozorida ham yetakchi kompaniyalardan biriga aylangan.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, garchi kitob bosish dastgohi XV asr o'rtalarida Germaniyada yaratilgan bo'lsa-da, kitob nashr qilish sanoati XV–XVI asrlarda Italiyada gullab-yashnadi. Venetsiya italyan shaharlar orasida noshirlik faoliyatida yetakchi shaharga aylandi. Vujudga kelgan yuzlab noshirlik uylari orasida Junti noshirlik uyi Yevropada o'z o'rni va mavqeyga erishib, keng geografik masshtabda nafaqat matbaachilikda, balki kitob savdosida muvaffaqiyatli faoliyat olib bordi. Junti noshirlik uyi Sharq olimlari asarlarini chop etishda ham faol bo'lib, madaniy Renessans jarayonlarini kechirayotgan Yevropa aholisi ehtiyojini qondirishda faol ishtirok etdi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ирисов А. Абу Али ибн Сино ҳаёти ва ижоди. – Т.: «Фан» нашр., 1980. – 298 б. (Irisov A. The life and works of Abu Ali ibn Sino)
2. Avicennae. Liber Canonis De Medicinis cordialibus. – Venetiis, Apud Iuntas, 1544. – P. 1200.
3. Avicennae. Arabum Medicorum Principis. Canon Medicinae. – Venetiis, Apud Iuntas, 1595. – P. 1046.
4. Avicennae. Arabum Medicorum Principis. Canon Medicinae. – Venetiis, Apud Iuntas, 1608. – P. 1046.
5. Brown H. Giunti T. The Will of Thomaso Giunti // The English Historical Review, Vol. 6, No. 21 (Jan., 1891), p. 154-161.
6. Campbell Donald. Arabian Medicine and its Influence on the Middle Ages. – Routledge, 2013. p. 201.
7. Hasse N. Success and suppression. Arabic Science and Philosophy in the Renaissance. – Harvard University Press, 2016. p. 660.
8. Makhmudov O.V. The Toledo School – early center of investigation of the works Central Asian scholars in the Europe. – Saarbrücken: Lambert Academic Publishing, 2017. – p. 187.
9. Nuovo A. The Book Trade in the Italian Renaissance. – Leiden, Brill: 2013. – p. 492.
10. Pettas W. An international renaissance publishing family: the Giunti // The Library Quarterly. Vol. 44, No. 4 (Oct., 1974), p. 334-339.
11. Pettas, W. A Sixteenth-Century Spanish Bookstore: The Inventory of Juan de Junta. – Transactions of the American Philosophical Society, New Series, Vol. 85, No. 1 (1995), p. 1-247
12. Rakhimov R. The role of the Giunti publishing house in dissemination of works of medieval Eastern scholars in Europe (on the example of "Al-qanun fit-tib" by Abu ali Ibn Sina) // Asian Journal of Multidimensional Research. Vol. 10. No. 11 (2021). – p. 229-227. <https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.01015.6>